



MAMLAKATIMIZDA SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN ISHLASHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

Sharopov Dilshodjon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0001-7607-8707

shdr767@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada davlat va mahalliy byudjetlar daromad manbalari, ularning o'zaro nisbatdagi o'zgarishlari hamda davlat byudjeti tarkibidagi ulushi tahlil qilingan. Ko'chmas mulklar qiymatining o'zgarish dinamikasi, shuningdek, mol-mulk va yer soliqlarining mahalliy byudjet daromadlaridagi salmog'i o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida statistik ma'lumotlar asosida soliq tushumlari va byudjet barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil etilgan. Maqolada mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash va soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, mahalliy byudjet, jismoniy va yuridik shaxslar, ko'chmas mulk, mahalliy soliqlar, mol-mulk solig'i, yer solig'i dinamikasi.

АНАЛИЗ ДЕЙСТВУЮЩЕГО СОСТОЯНИЯ РАБОТЫ С НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКАМИ В СТРАНЕ

Шаропов Дилшоджон

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье анализируются источники доходов государственного и местного бюджетов, их соотношение и доля в структуре государственного бюджета. Изучена динамика изменения стоимости недвижимости, а также доля налогов на имущество и землю в доходах местного бюджета. В ходе исследования на основе статистических данных была проанализирована взаимосвязь между налоговыми поступлениями и стабильностью бюджета. В статье разработаны научно обоснованные предложения по укреплению доходной базы местных бюджетов и совершенствованию системы налогообложения.

Ключевые слова: государственный бюджет, местный бюджет, физические и юридические лица, недвижимость, местные налоги, налог на имущество, динамика земельного налога.

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF WORK WITH TAXPAYERS IN OUR COUNTRY

Sharopov Dilshodjon

Tashkent State University of Economics

Abstract. The article analyzes the sources of revenue of the state and local budgets, the changes in their relative proportions, and their share in the structure of the state budget. The dynamics of changes in real estate values, as well as the share of property and land taxes in local budget revenues, are examined. During the research process, the relationship between tax revenues and budget stability was analyzed based on statistical data. The article develops scientifically grounded proposals aimed at strengthening the revenue base of local budgets and improving the taxation system.

Keywords: state budget, local budget, individuals and legal entities, real estate, local taxes, property tax, land tax dynamics.

Kirish.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati, eng avvalo, davlat moliya tizimining barqarorligi va soliqlarning samarali boshqarilishiga bevosita bog'liqdir. So'nggi yillarda soliq siyosatini liberallashtirish, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish hamda soliq to'lovchilar bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish yo'nalishida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, davlat va mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishda soliq tushumlarining o'rne va ulushi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mahalliy budjetlar daromadlarida mol-mulk va yer soliqlarining salmog'i ularning moliyaviy mustaqilligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu bois, mahalliy soliqlarni to'plash samaradorligini oshirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish hamda soliq ma'murchiligi mexanizmlarini takomillashtirish masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan, davlat va mahalliy budjetlar manbalari, soliqlar ulushining o'zgarish dinamikasi hamda ularning iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini o'rganish muhim sanaladi.

Adabiyotlar sharhi.

Kuo (2000) o'zining ilmiy ishida soliq tizimi samaradorligini baholashda soliq salohiyati (tax capacity) va soliq yig'im darajasi (tax effort) o'rtasidagi nisbatga alohida e'tibor qaratgan. Olimning fikricha, har bir mamlakatning soliq salohiyati uning iqtisodiy rivojlanish darajasi, YaIM tarkibi, tarmoq tuzilmasi hamda institutsional muhit bilan chambarchas bog'liq. Kuo ta'kidlashicha, soliq tushumlari hajmiga faqat soliq stavkalari emas, balki soliq ma'murchiligi samaradorligi va soliq to'lovchilarning intizomi ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan u soliq siyosatini adolatli, barqaror va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi yo'nalishda olib borish zarurligini ta'kidlaydi.

Gaspar, Jaramillo va Wingender (2016) o'zlarining tadqiqot ishida soliq salohiyati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilganlar. Olimlarning fikricha, soliq tizimi samaradorligi mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi, davlat moliyasining mustahkamligi va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqotda ta'kidlanishicha, soliq tushumlarining ma'lum "burilish nuqtasi" (tipping point) mavjud bo'lib, u darajadan oshgach, soliq yukining ortishi iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Gaspar va hamkorlari fikricha, soliq siyosatining maqsadi soliq stavkalarini oshirish emas, balki soliq bazasini kengaytirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va soliq intizomini mustahkamlash orqali davlat daromadlarini barqaror oshirishdan iborat bo'lishi kerak. Shuningdek, ular soliq tizimi inklyuziv iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashi va investitsiyalar uchun qulay muhit yaratishi lozimligini ta'kidlaydilar.

Iqtisodchi Ollokulova (2023) o'z tadqiqotida mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda investitsion faollikni oshirish, soliq tushumlarini barqaror shakllantirish hamda hududlarning iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanish masalalarini tahlil qilgan. Olimaning fikricha, mahalliy budjet daromadlarini oshirish uchun soliq va budjet siyosatini uyg'unlashtirish, hududlarda investitsiya muhiti va infratuzilmani yaxshilash zarur.

Xayriddinov (2022) ilmiy izlanishlarida mahalliy budjetlarning daromad manbalarini barqaror shakllantirishda me'yoriy ajratmalar tizimining ahamiyati va uni takomillashtirish zaruratini tahlil qilgan.

Muallifning fikricha, hozirgi amaldagi me'yoriy ajratmalar tizimi hududlar moliyaviy mustaqilligini to'liq ta'minlab berolmayapti. Shu sababli, uni qayta ko'rib chiqish, ayniqsa hududlarning iqtisodiy salohiyati va soliq bazasidan kelib chiqib differensial yondashuvni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, Xayriddinov mahalliy budjet daromadlarini oshirish uchun soliq tushumlarini hududlarda to'liq yig'ish mexanizmlarini takomillashtirish, transfertlar tizimini shaffoflashtirish va me'yoriy ajratmalar ulushini qayta balanslash lozimligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, statistik tahlil usullaridan keng foydalanilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida foydalanilgan nazariy hamda statistik materiallarning ishonchliligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining turli tarmoqlarida kuzatilayotgan ijobiy dinamika, shuningdek, soliq qonunchiligini liberallashtirish hamda soliq to'lovchilar huquqlarini mustahkam himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar soliq bazasini kengaytirish va davlat budjetiga qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatlarini yaratmoqda. Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq, umumdavlat soliqlarini to'lash orqali Respublika budjeti daromadlarini shakllantiradigan yuridik va jismoniy shaxslar, shu bilan birga, mahalliy budjetlarning moliyaviy manbaini tashkil etuvchi mahalliy soliqlar va yig'implarning ham to'lovchilari hisoblanadilar.


Amaliyotda mahalliy budjet daromadlari asosan bevosita mahalliy budjetga tushuvchi daromadlar hamda yuqori tashkilotdan ajratma sifatida keladigan daromadlardan iborat bo'ladi. Mahalliy budjetlarning o'z daromadlari qancha ko'paysa, mahalliy hokimliklarning boshqarish imkoniyatlari shuncha barqarorlashadi va kengayadi hamda aksincha hududlar iqtisodiyoti qancha rivojlansa mahalliy budjetlarning daromadlari ham shuncha barqarorlashadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahalliy budjetlarga bo'lgan e'tibor ortib, uni har tomonlama qo'llab quvvatlash imkoniyatlari kengayib borgan sari, joylarda mahalliy budjetlar hisobidan bo'ladigan xarajatlarning o'sib borish hisobiga mahalliy budjet daromadlarini barqarorligini ta'minlashda muammolar ham ko'payib boradi.

2010–2024-yillar davomida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mahalliy budjetlar xarajatlarini respublika budjetiga undirilgan soliqlar hisobidan moliyalashtirish usuli keng qo'llangan. Shu bilan birga, mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantiruvchi yer va mol-mulk soliqlarini hisoblash hamda undirish mexanizmlarini takomillashtirishga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan. Mahalliy budjetlar xarajatlari asosan respublika budjeti mablag'lari orqali subsidiyalar shaklida moliyalashtirilib kelingan.

Bunday amaliyot natijasida mahalliy soliqlarning mahalliy budjetlar tarkibidagi ulushi pasayishga yuz tutgan. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy moliya siyosatining mustaqilligi va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

2016–2024-yillardagi davlat budjeti daromadlari tarkibi va dinamikasi tahliliga ko'ra, ushbu davrda jami davlat budjeti tushumlari 3 barobardan ortiqqa, respublika budjeti daromadlari esa 4 barobardan ko'proqqa oshgan. Biroq, shu davrda mahalliy budjetlar daromadlarining o'sishi nisbatan past sur'atlarda o'rtacha 12–15 foiz atrofida kuzatilgan. Aniq raqamlarga murojaat qilsak, 2016-yilda mahalliy budjet daromadlari oldingi yilga nisbatan 116,0 foiz, 2018-yilda 121,8 foiz, 2020-yilda 78,8 foiz, 2022-yilda 134,7 foiz, 2024-yilda esa 104,5 foizni tashkil etgan. Shuningdek, mahalliy budjet daromadlarining konsolidatsiyalashgan budjet daromadlaridagi ulushi ham pasayish tendensiyasini namoyon etmoqda. Masalan, 2016-yilda 33,2 foiz, 2020-yilda 18,0 foiz, 2024-yilda bo'lsa 15,5 foizni tashkil etgan. Bu holat mahalliy moliyaviy mustaqillik darajasining yil sayin pasayib borayotganligidan dalolat beradi hamda mahalliy soliqlar bazasini kengaytirish va undirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish zarurligini anglatadi.




1-rasm. Davlat budjeti daromadlari tarkibida respublika va mahalliy budjetlarining ulushi va dinamikasi, foizda

Manba: O'zbekiston Respublikasi "Ochiq budget" poratli ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi - <https://openbudget.uz/home>

2019-yil 1-yanvardan soliq ma'murchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar bilan, aylanmasi 1 mlrd. so'mdan oshgan barcha tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan, 2020-yildan amaliyotga joriy etilgan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bo'yicha aylanmadan soliq va tadbirkorlik subyektlari mol-mulk va resurs soliqlarini to'lash tizimiga o'tkazilib, ushbu soliqlar bo'yicha berilgan soliq imtiyozlari bekor qilingan (Farmon, 2018).

Shu sababdan, tadqiqot davomida mazkur muammoning aniq sabablarini o'rganish maqsadida, bevosita mahalliy budget daromadlari va uning tarkibidagi mahlliy soliqlar mol-mulk va yer soliqlarining budget daromadlari tarkibidagi salmog'i dinamikasi bilan tahlil qilish maqsadga muvofiq deb topildi va 2016-2024-yillarda mahalliy budget daromadlari tarkibidagi mahalliy soliqlarning salmog'i quyidagicha bo'lganligi kuzatildi.



2-rasm. Soliq solish maqsadida ko'chmas mulklarning qiymati dinamikasi, mlrd. so'm

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi - www.soliq.uz

2017-2024-yillarda budget daromadlari o'sib borgan bir vaqtda, uning tarkibidagi soliqlarning salmog'i keskin kamayib borganligi ko'rsatadi. Yoki soliqlarning ulushi 2017-yilda

46,5 mlrd. so'm ko'chmas mulk qiymati tashkil qilgan bo'lsa, 2018-yilda 387,5 mlrd. so'm, 2020-yilda 401,2 mlrd. so'm, 2022-yilda 455,6 mlrd. so'm, 2024-yilda 492,7 mlrd. so'm ko'chmas mulk qiymati tashkil etdi.

Mahalliy budjet daromadlarining yildan-yilga kamayish tendensiyasi sabablarini aniqlash maqsadida, vaziyatni bevosita mahalliy budjetlarning asosiy daromadini tashkil qiluvchi mahalliy soliqlar misolida tahlil qilib chiqildi. Quyidagi 1-jadval ma'lumotlari mahalliy budjet daromadlarining yildan-yilga kamayish tendensiyasining asosiy sabablaridan biri bu 2016-2024-yillarda soliq ma'murchiligiga kiritilgan o'zgarishlar bo'lgan.

1-jadval

2016-2024-yillarda mahalliy budjet tushumlari tarkibida mahalliy soliqlarning salmog'i va o'sish dinamikasi, mlrd. so'm

T/r	Ko'rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1.	Mahalliy soliqlar bo'yicha jami tushumlar	4879,2	5691,6	5439,6	4616,7	3611,9	6540	9321,3	11987,8	13886,1
	Mahalliy soliqlarning oldingi yilga nisbatan ulushi	118,4	116,6	95,6	84,8	78,2	181,1	142,5	128,6	115,8
2.	Mol-mulk solig'i tushumi	1659,3	2129,7	2606,1	2306,1	1974,1	2457	4015,4	5097,7	6715,0
	Mol-mulk solig'ining o'rtacha yillik o'sish ko'rsatkichi (oldingi yilga nisbatan)	100	128,3	122,3	88,4	85,6	124,5	163,4	126,9	131,7
3.	Yer solig'i tushumi	966,7	1091,8	1504,2	2313,6	1637,8	4083	5305,9	6890,1	7171,1
	Yer solig'ining o'rtacha yillik o'sish ko'rsatkichi (oldingi yilga nisbatan)	100	112,9	137,7	153,7	70,8	249,3	130,0	129,9	104,1
4.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	162,5	171,8	128,4	314,5	478,8	684,4	704,1	791,4	1261,1
	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning o'rtacha yillik o'sish ko'rsatkichi (oldingi yilga nisbatan)	100	105,7	74,7	244,9	152,2	142,9	102,9	112,4	159,4
5.	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	2517,7	3474,1	8424,7	14692,8	16417,1	15811,9	13887,4	15300,3	16684,2
	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning o'rtacha yillik o'sish ko'rsatkichi (oldingi yilga nisbatan)	100	138,0	242,5	174,4	111,7	96,3	87,8	110,2	109,0
6.	Aylanmadan olinadigan soliq	2956,9	3459,2	4706,5	1988,7	1353,9	1649,4	2512,7	2407,3	2851,1
	Aylanmadan olinadigan soliqning o'rtacha yillik o'sish ko'rsatkichi (oldingi yilga nisbatan)	100	117,0	136,1	42,3	68,1	121,8	152,3	95,8	118,4


Manba: O'zbekiston Respublikasi "Ochiq budjet" poratli ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi - <https://openbudget.uz/home>

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi qarori bilan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va foyda soliqlari birlashtirilib yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'iga o'tkazilganligi e'tiborga molik.

Shuningdek, Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari hamda 2020-2021-yillarga budjet mo'ljallari to'g'risida"gi qarori bilan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun soliqni aksiz solig'iga o'zkazilgan.

Lekin, 2018-yildan boshlab jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliq bo'yicha mavjud mol-mulkning kadastr qiymatidan kelib chiqib soliq hisoblash tartibiga o'tkazilishi yoki 2019-yildan boshlab barcha kichik biznes subyektlarining mol-mulk va yer soliqlarini to'lashga o'tkazilishi mahalliy budjet daromadlarining o'sishiga ta'sir qilishi lozim edi. Shu sababli, mazkur holatni mol-mulk va yer soliqlarini to'lovchilar hamda ular tomondan soliqlarni hisoblash, to'lash amaliyotini tahlil qilish lozim bo'ladi.

Mahalliy budjetlar tarkibida mahalliy soliqlar kamayishini bevosita mol-mulk solig'i tushumini jami budjet tushumlari bo'yicha tahlil qilinganda quyidagi natijalarni kuzatish mumkin (3-rasm).




3-rasm. Mol-mulk solig'i bo'yicha tushumining budjetlardagi salmog'i, foizda

Manba: O'zbekiston Respublikasi "Ochiq budjet" poratli ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi - <https://openbudget.uz/home>

3-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2016-2024-yillarda mol-mulk solig'ining davlat budjeti va mahalliy budjet daromadlari salmog'idagi ulushlari juda ham past darajani tashkil etishi bilan birga ushbu soliq tushumining oxirgi yillarda keskin pasayish tendensiyasida bo'lganligi aniqlandi. Xususan, mol-mulk solig'ining davlat budjeti daromadlaridagi salmog'i 2016-yilda 3,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda 3,3 foizni, 2020-yilda 1,5 foizni, 2022-yilda 2,0 foizni va 2024-yilda 2,5 foizni tashkil etgan hamda mol-mulk solig'ining mahalliy budjet daromadlaridagi salmog'i ham 2016-yilda 10,2 foizni tashkil qilib, 2018-yilda 11,4 foizni, 2020-yilda 7,1 foizni, 2022-yilda 8,5 foizni tashkil etgan, 2024-yilda esa bu ko'rsatkich 11,6 foizga tashkil etmoqda.

Mahalliy budjetlar tarkibida mahalliy soliqlar kamayishini bevosita yer solig'i tushumini jami budjet tushumlari bo'yicha tahlil qilinganda quyidagi natijalarni kuzatish mumkin (4-rasm).



4-rasm. Yer solig'i tushumining byudjetlardagi salmog'i, foizda

Manba: O'zbekiston Respublikasi "Ochiq byudjet" poratli ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi - <https://openbudget.uz/home>

4-rasmda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2016-2024-yillarda yer solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i 2016-yilda 2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda 1,9 foizni, 2020-yilda 1,8 foizni, 2022-yilda 2,6 foizni va 2024-yilda 2,6 foizni tashkil etgan hamda yer solig'ining mahalliy byudjet daromadlaridagi salmog'i ham 2016-2017-yillarda mos ravishda 6 foizni tashkil qilib, 2018-yilda 6,6 foizni, 2020-yilda 8,6 foizni, 2022-yilda 11,2 foizni tashkil etgan, 2024-yilda esa bu ko'rsatkich 12,4 foizga tashkil etmoqda.

Mazkur holatni 2019-yildan boshlab mamlakatimiz soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasidan kelib chiqib, barcha tadbirkorlik subyektlarining faoliyati va aylanmalaridan qat'iy nazar mol-mulk, yer va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to'lashga o'tganligi munosabati bilan soliq stavkalarining keskin pasaytirilganligi bilan izohlash mumkin, lekin aynan shu davrda soliq to'lovchi yuridik shaxslar sonining keskin o'sishi soliq tushumlarining o'sishiga ham ta'sir ko'rsatishi lozim edi.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan ilmiy tahlillar natijasida, quyidagi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Yuridik shaxslar uchun pasaytirilgan soliq stavkasini bazaviy soliq stavkasini belgilangan obyektlarga nisbatan pasaytirilgan soliq stavkasi 0,4 foizdan 0,5 foizgacha ko'tarish taklif qilingan;

2. Mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarishda bino va inshootlar bo'yicha soliq bazasi (liniyali obyektlar va tugallanmagan qurilish obyektlari bundan mustasno) bu obyektlarga 1 kv. metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatdan past bo'lishi mumkin emasligi bo'yicha hududlar kesimida miqdor belgilash taklif etilgan. Bunda, Toshkent shahrida–ikki million besh yuz ming so'm, Nukus shahrida va viloyat markazlarida–bir million besh yuz ming so'm, boshqa shaharlarda va qishloq joylarda–bir million so'm. Bundan tashqari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari belgilangan minimal qiymatga, tumanlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab 0,5 gacha bo'lgan kamaytiruvchi koeffitsient kiritishi mumkinligi taklif qilingan;

3. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga nisbatan oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan ta'sirchan choralar qo'llanilishi mumkin bo'lgan obyektlarni soliqqa tortish tartibi saqlanib qolish taklif etilgan.

4. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i bazasini aniqlashdagi 1 kv.m uchun o'rnatilgan minimal qiymat o'rnatish tartibini jismoniy shaxslarning noturar obyektlarini soliqqa tortish uchun ham qo'llash. Bunda soliq to'lovchiga ko'chmas mulk obyektlari qiymatini mustaqil baholatish va natijalari bo'yicha soliq hisoblash huquqi berish taklif qilingan.

Demak, tahlillar mahalliy soliqlar, jumladan, mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlar dinamikasidagi mazkur muammoli holatlarni soliq tushumlarining o'sishi nafaqat soliq to'lovchilar soniga, balki soliqqa tortish obyektlari, soliq hisoblash bazasi hamda soliq stavkalarini to'g'ri belgilanishiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli, tadqiqot ishida soliq to'lovchilar va soliqqa tortiladigan obyektlarni hisobga olish, soliq solinadigan bazani aniqlash hamda soliq stavkalarini qo'llash tartiblarini chuqur tahlil qilish va qayta ko'rib chiqish, ularni xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida takomillashtirish talab qilinadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Farmon (2018). *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyunda "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son Farmoni.*

Gaspar, V., Jaramillo, L., & Wingender, M. P. (2016). *Tax sapasity and Growth: Is there a Tipping Point.* International Monetary Fund.

Kuo, S. Y. (2000). *Estimation of Tax Revenue and Tax sapasity.*/ s. y. Kuo//jDI Exesutive Programs.

O'zbekiston Respublikasi "Ochiq budget" poratli ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi - <https://openbudget.uz/home>

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi - www.soliq.uz

Ollokulova F. (2023). *Mahalliy budjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili* //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – T. 1. – №. 8.

Xayriddinov, A. (2022). *Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda me'yoriy ajratmalar tizimini takomillashtirish masalalari.* Iqtisodiyot va moliya, №4, 56–63.